

**INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARIDA FOOT/OYOQ
KONSEPTINING “TIK/QUYI JOYLASHUV” SEMANTIK MAYDONI
FRAZEOLOGIK BIRLIKLARINING LINGVOMADANIY
JIHATLARI**

Mamadaliyeva Gulro‘ Ravshanovna

FarDU tayanch doktoranti

guli.ravshanovna@gmail.com

Tilning konseptual tuzilmasida frazeologik birliklar alohida o‘rin tutadi. Ular xalq tafakkurining tildagi in‘ikosi, madaniy tajriba va ijtimoiy ong mahsulidir. Frazeologizmlar tilning semantik tizimida shunchaki barqaror birikmalar emas, balki konseptual va madaniy bilimlarni tashuvchi kognitiv birliklar sifatida namoyon bo‘ladi. Somatik frazeologik birliklarning lingvomadaniy tahlili bizga tilning prototipik qatlamlariga chuqurroq kirib borish va frazeologik birliklarning bilvosita (implitsit) va ochiq (eksplitsit) ma’nolarini madaniyat belgisi sifatida aniqlash va talqin qilish imkonini beradi.

Frazeologizmlarning lingvokulturologik tahlili kognitiv model asosida olib boriladi. Kognitiv model — inson tafakkuridagi konseptual tuzilmalarni ifodalovchi mental sxemadir. U inson tajribasining tilda qanday kategoriyalashishini ko‘rsatadi. G. G. Slishkin va V. I. Karasik fikricha, kognitiv model “til va madaniyat o‘rtasidagi ko‘prik” bo‘lib, aynan shu model orqali til birliklari insonning dunyo haqidagi tasavvurlarini ifodalaydi. Frazeologizmlar ana shu modelning obrazli komponentini tashkil etadi. Olimlar ularni konseptning “tasviriy hududi” sifatida qaraydi, chunki ular kognitiv belgilarni emotsional, baholovchi va tasviriy shaklda voqelantiradi. Masalan, *oyoqqa turmoq* va *stand on one’s own feet* frazeologizmlarida “tayanch” belgisi, *oyoq osti qilmoq* va *trample underfoot* birliklarida “tahqirlash”, *cold feet* (jur’atsizlik) iborasida esa “qo‘rquv” belgisi aks etadi.

Frazeologizmlar semantikasida ko‘pincha arxetipik belgilar — insoniyat tafakkurida qadimdan mavjud bo‘lgan universal obrazlar namoyon bo‘ladi. K.G.Yung nazariyasiga ko‘ra, arxetiplar inson ongi tubida saqlanadigan, turli madaniyatlarda o‘ziga xos shakl oluvchi ibtidoiy timsollar hisoblanadi. “Oyoq/foot” konsepti ana shunday arxetipik asosga ega bo‘lib, u “yer bilan aloqa”, “harakat”, “tayanch” va “yuqori-quyi” “yaxshi-yomon” kabi fundamental belgilarni ifodalaydi.

Shu sababli tana a‘zosi bo‘lmish oyoq bilan bog‘liq frazeologizmlar (*oyoq osti qilmoq, (o‘z) oyog‘iga bolta urmoq, oyog‘i yengil; underfoot, find one’s feet*) semantik jihatdan nafaqat denotativ, balki arxetipik va kognitiv mazmunga ham ega. Masalan, *cold feet* iborasida sovuq harorat orqali *qaroridan qaytish (sovish)* metaforasi ifodalanadi, o‘zbek tilidagi *qo‘l-oyog‘i chaqqon* esa “harakat— yengillik— omad” arxetipiga tayangan.

Konseptning parametrik belgilari uning tashqi, jismoniy yoki fazoviy o‘lchamlarini ifodalaydigan kognitiv birliklar tizimidir. Z.D.Popova va I.A.Sternin ta‘rifiga ko‘ra, parametrik belgilar — bu “inson idrokiga sezgi orqali ta’sir qiluvchi fizik, fazoviy va miqdoriy xususiyatlar majmui” bo‘lib, ular konseptning perceptiv qatlamini tashkil etadi. Shu ma’noda “foot/oyoq” konsepti inson tanasining fizik-makon o‘qi (vertikal o‘lchami) sifatida tildagi fazoviy, miqdoriy va aksiologik oppozitsiyalarini ifodalash imkonini beradi.

Til tizimida bu belgilar asosan “yuqori–quyi”, “uzun–qisqa”, “og‘ir–yengil”, “issiq–sovuq” kabi qarama-qarshi juftliklar shaklida konseptuallashtiriladi. Ularning ichida “yuqori–quyi” fazoviy oppozitsiyasi oyoq konseptining eng asosiy parametrik belgilaridan biridir, chunki bu oppozitsiya insonning tanaviy tuzilishiga asoslanadi: *bosh – yuqori, oyoq – quyi*ni bildiradi. Shu fazoviy differensiasiya asosida ko‘plab frazeologik birliklarda vertikal metaforalar hosil bo‘ladi. Ushbu vertikal qarama-qarshilikning ildizi inson tafakkurining mifologik dunyoqarashiga borib taqaladi.

V.A.Maslova ta’kidlaganidek, “insonning mifologik tafakkurida odam koinotning markazidir; qadimgi odamlar insonni koinotning antropomorfik timsoli sifatida ko‘rishgan: odam egallagan tik (vertikal) pozitsiyasi — uning “yuqori” fikrlari bilan bog‘liq bo‘lgan osmonga, yuksakka intilishini; insondagi gorizontallik esa — undagi yerga xos barcha narsalar, gunohkorliklarni anglatgan”.

Demak, inson tanasining vertikal tuzilishi (*bosh – oyoq, yuqori – quyi*) nafaqat anatomik yoki fazoviy farqlanish, balki mifologik-aksiologik model sifatida ham konseptuallashtirilgan. Shu bois “quyi holat” ramzi sifatidagi oyoq nafaqat jismoniy fazoda, balki qadimiy tafakkurda ham “yer, gunoh, kamsitilish, pastki mavqe yoki bo‘ysunish” kabi semantik maydonlar bilan bog‘langan, bosh esa “osmon, yuksaklik, poklik, ilohiylik” timsoli sifatida talqin etilgan.

J.Lakoff va M.Johnson tomonidan ilgari surilgan “verticality metaphor” (“up–down” modeli) aynan shu qadimiy antropomorfik asosni *Up is good, down is bad* zamonaviy kognitiv modeli darajasida davom ettiradi. Shu sababli oyoq konsepti orqali “past holat” ba’zan tavoze va ehtiromni, ba’zan esa kuchsizlik va tahqirni bildiradi. O‘zbek tilida *boshdan-oyoq razm solmoq (sinchiklab tikilmoq, diqqat bilan nazar tashlamoq)* iborasi bosh va oyoq o‘rtasidagi vertikal fazoviy o‘lcham asosida tuzilgan. Bu ibora ingliz tilidagi *from head to foot (toe) birligi* bilan semantik jihatdan mos keladi. Har ikkisi ham yuqoridan pastgacha bo‘lgan to‘liq o‘lchamni ifodalaydi va *butunlik, yaxlitlik, butun tana* ma’nosini beradi: *U ko‘zoynak orqasidan Sherzodga boshdan-oyoq razm solib chiqdi-da, negadir jilmaydi.* (O‘. Hoshimov, Nur borki, soya bor); *“Let me out,” he said. He was shaking from head to foot.*(J.K.Rowling, Harry Potter and The deathly hallows)

Demak, parametrik oppozitsiya aksiologik konnotatsiyani hosil qiladi, ya’ni “yuqorilik – *ustunlik*”, “*quyilik – bo‘ysunish yoki kamsitilish*” metaforasiga aylanadi. Bu holat “oyoq” konsepti uchun, ayniqsa, xarakterlidir

“Tik/quyi joylashuv” semantik maydoni doirasida *foot/oyoq* somatik komponenti fazoviy va ijtimoiy munosabatlarni ifodalovchi muhim kognitiv birlik sifatida namoyon bo‘ladi. Ushbu modelda “oyoq” inson tanasining yer bilan aloqa nuqtasi sifatida “tayanch”, “barqarorlik” va “pastlik” ma’nolarini faollashtiradi. Shu bilan birga “pastga bosish”, “kimnidir oyoq ostiga qo’yish” yoki “biror kishining oyog‘i ostida bo‘lish” kabi tasvirlarda “oyoq” kamsitish, ustunlikni namoyish etish hamda itoatkorlik va sadoqat mazmunlarini ochib beradi. Mazkur semantik yo‘nalishlar madaniyatlararo tahlilda turlicha ma’naviy konnotatsiyalarni yuzaga keltiradi. “Tik/quyi joylashuv” semantik maydonida *foot/oyoq* konsepti verbalizatorlari fazoviy, ijtimoiy va psixologik munosabatlarni ifodalovchi vosita sifatida namoyon bo‘ladi. Ushbu maydonda “oyoq” komponenti orqali *yaqinlik, to‘siqlik, qulaylik, ustunlik* kabi g‘oyalar konseptualizatsiyalanadi. Quyida mazkur maydonning ayrim verbalizatorlari – ingliz va o‘zbek tillaridagi muqobil iboralar – tahlil qilinadi.

Ingliz tilida qo‘llaniladigan *be at someone’s feet* iborasi (so‘zma-so‘z: “kimningdir oyoqlari oldida bo‘lish”) “kingadir sadoqat ko‘rsatish, e’tibor bilan tinglash, ta’zim bildirish” ma’nolarini anglatadi: *All the students were at the professor’s feet.*— Barcha talabalarning diqqat-e’tibori professorda edi. Bu ibora ingliz madaniyatida hurmat, ehtirom va ijtimoiy ustunlik ramzi sifatida qo‘llanadi.

Islom sivilizatsiyasi va o‘zbek madaniy merosida esa “oyoq” tushunchasi muqaddaslik, ehtirom va xokisorlik bilan ham bog‘lanadi. Hadisi sharifdagi “*Jannat onalar oyog‘i ostidadur*” jumlasida “oyoq”ni onaga xizmat qilish, unga itoat etish va shu orqali jannatga erishish yo‘lidagi ma’naviy tayanch va manba sifatida talqin etadi. Bunda “oyoq” jismoniy a’zodan tashqari muqaddas daraja va baraka timsoliga aylanadi. Mir Alisher Navoiy bu g‘oyani quyidagi misralarda badiiy tarzda ifodalagan:

Onalarning oyog‘i ostidadir ravzai jannatu jinon bog‘i,

Ravza bog‘i visolin istar esang, bo‘l onaning oyog‘in tufrog‘i.

Mazkur misralarda “oyoq” konsepti diniy-axloqiy qadriyatlarning o‘zagini ifodalab, onaga nisbatan ehtirom va itoat orqali yuksak ma’naviy maqomga erishish g‘oyasini aks ettiradi.

Shuningdek, *oyog‘ida namoz o‘qimoq* iborasi ham ehtirom va sadoqat ramzi bo‘lib, biror shaxsning sharafiga uning huzurida sajda qilish, ya’ni hurmatning eng oliy shaklini ifodalaydi: *Mana endi, oyday qilib qo‘yganda, oyog‘ida namoz o‘qish o‘rniga shunday xorlasangiz, uyat bo‘lmaydimi, jon uka!*

(M. Ismoiliiy, *Farg‘ona tong otguncha*). Ingliz tilidagi **worship the ground someone walks on** (“kimsa yurgan yerni ulug‘lamoq”) iborasi mazkur o‘zbekcha ifodalarning semantik va emotsional analogi bo‘lib, insonni haddan tashqari ulug‘lash, unga sadoqat va ehtirom bildirish mazmunini beradi.

Ingliz tilida **“My foot!”** iborasi so‘zma-so‘z “Mening oyog‘im!” degan ma’noni bildirsa-da, idiomatik qo‘llanishda inkor, ishonchsizlik va kinoyani ifodalaydi. Gapiruvchi bu birlik orqali tinglovchining so‘zini rad etadi yoki uni ahamiyatsiz deb hisoblaydi: *“He’s an expert, my foot!”*—“U ekspertmish, qo‘ysangchi!”.

Shunga yaqin, ammo semantik jihatdan murakkabroq birlik sifatida **“Christ’s foot!”** undov gapi ham mavjud. U emotsional reaksiyani — hayrat, norozilik yoki g‘azabni bildiradi. Bu ibora madaniy-pragmatik yuklama kasb etadi: unda diniy qasam va hayrat hissi birgalikda ifodalanadi: *“Christ’s foot! What a mess!”* – *“Voy Xudoyim, bu nima ahvol!”*. O‘zbek tilida oyoq komponentli undov birikmalarini uchratmadik.

Ingliz tilidagi salbiy emotsional konnotatsiyaga ega **be under somebody’s feet** iborasi (so‘zma- “biror kishining oyoqlari ostida bo‘lish”) “kimningdir yo‘lida o‘ralashib, ishiga halaqit qilish” ma’nosini bildiradi. Masalan: *When you’re in the house your parents moan about you always being under their feet.* — Uyda bo‘lganingda ota-onang doim ularning oyoqlari ostida o‘ralashishingdan shikoyat qilishadi. O‘zbek tilida bu mazmunga to‘la muvofiq

oyoq tagida/oyoq ostida o‘ralashmoq iborasi mavjud: *Oyog‘i tagida o‘ralashayotganlarni pisand qilmas, yo‘lini to‘sib, yig‘lab dardini aytadiganlarni elamas edi.* (S. Ahmad, Ufq).

Ingliz tilidagi *have the world at one’s feet* iborasi “ulkan muvaffaqiyatga erishmoq, barcha imkoniyatlar ochiq bo‘lmoq” degan ma’noni bildiradi: *After her breakthrough performance, she had the world at her feet.*— Uning ajoyib ijrosidan so‘ng butun dunyo uning oyoqlari ostida edi. Bu ifoda “oyoq ostidagi dunyo” – shaxsning muvaffaqiyati natijasida unga bo‘ysungan, zabt etilgan makon sifatida tasavvur qilinadi. O‘zbek tilida mazmun jihatidan o‘xshash ifoda *dunyo oyoqlari ostida* – inglizcha iboraning to‘g‘ridan-to‘g‘ri ekvivalenti bo‘lib, “butun dunyo unga maftun, barchaning e’tibori unda” mazmunini beradi.

Oyog‘i ostida – “barcha imkoniyat va sharoitlar ixtiyorida, qanday xohlasa shunday foydalanishi mumkin” degan ma’noda qo‘llanadi. Masalan: *Mayli, dunyoning narigi chekkasiga borib, falon narsani topib kel desin, uning butun davlati shu bebaho o‘g‘ilning oyog‘i ostida.* (A. Muxtor, Opa-singillar). Inglizcha *have the world at one’s feet* ifodasini o‘zbekchada “dunyo oyoqlari ostida”, yoki mazmuniga qarab “barcha yo‘llar ochiq, imkoniyatlar keng” tarzida tarjima qilish mumkin; o‘zbekcha *oyog‘i ostida* esa inglizchada “*at one’s disposal*”, “*everything within reach*”, “*the door is wide open*” kabi variantlar bilan ifodalanadi. Bu iboralar ijobiy konnotatsiyaga ega bo‘lib, yutuq, e’tirof va nufuzni ifodalaydi.

Demak, “tik/quyi joylashuv” semantik maydoni tarkibida *foot/oyoq* komponenti nafaqat fazoviy munosabatlarni, balki insonning ruhiy va ijtimoiy holatini ham ifodalovchi kuchli tasviriy ifoda sifatida namoyon bo‘ladi. Bu komponent orqali bo‘ysunish, itoat, tavba va muhabbat kabi tushunchalar konseptuallashadi.

Ingliz tilidagi *throw oneself at somebody’s feet* iborasi (so‘zma-so‘z: “o‘zini kimningdir oyoqlari ostiga tashlamoq”) “sevgida, iltijoda yoki tavbada

o‘zini kamsitish, bo‘ysunish yoki chuqur hurmat izhor etish” ma’nolarini bildiradi. Misol uchun: *I throw myself at your feet and beg for your blessing. I love you sincerely, Jane.* — “Men oyoqlaringga bosh uraman va duolaringni so‘rayman. Men seni chin dildan sevaman, Jeyn.” O‘zbek tilida bu iboraning to‘liq ekvivalenti mavjud — **oyog‘iga bosh urmoq**. Mazkur frazeologizm “kingadir chuqur hurmat ko‘rsatmoq”, “xokisorlik izhor etmoq”, “iltijo bilan kechirim so‘ramoq”, “bo‘ysunmoq” yoki “itoat qilmoq” ma’nolarida ishlatiladi. Badiiy matnlarda u ko‘pincha diniy, ma’naviy yoki hissiy kontekstda uchraydi. Masalan: *Kechir meni, oyog‘ingga bosh qo‘yib, yolvorib qoluvchi Hasan.* (S. Ahmad, Begona).

“Tik/quyi joylashuv” semantik maydonida *foot/oyoq* komponenti ko‘p hollarda ustunlik, tahqir, yoki mensimaslik kabi ijtimoiy-axloqiy munosabatlarni ifodalash uchun ham ishlatiladi. Masalan, o‘zbek tilidagi **yuziga oyoq bosmoq** iborasi “kingadir nisbatan kamsitish, hurmatini poymol qilish, sha’nini toptamoq” ma’nosini bildiradi. Bu ibora odatda axloqiy me’yorlardan chekinish, ustunlikni zo‘rluk bilan namoyish etish yoki insoniy qadriyatlarni tahqirlash holatlarini ifodalaydi: ... *tog‘angning yuziga oyoq qo‘yding, endi meni ham pisand qilmaysanmi?* (A. Qahhor, Yangi yer). Mazkur frazeologizmda “oyoq” komponenti jismoniy bosim va ustunlik ramzidir. Ingliz tiliga bu ifoda kontekstga qarab **walk all over someone** yoki **trample someone’s under one’s feet** tarzida analog tarjima usulida o‘giriladi. Har ikkala iborada ham vertikallik (ustdan bosish) metaforasi asosiy semantik mexanizm bo‘lib xizmat qiladi. O‘zbek tilidagi **oyoq uchida ko‘rsatmoq** iborasi ham “mensimaslik”, “kibr” yoki “yuqoridan qarash” ma’nolarini bildiradi. Bu ibora ijtimoiy tabaqalanish, o‘zini boshqalardan yuqori qo‘yish mazmuni bilan bog‘liq: ...*uncha-muncha boy oila qizlarini taajjublantirar, kambag‘al, hatto o‘rtahol oila qizlarini oyoq uchi bilan ko‘rsatib, tomosha qilar, “kelin ko‘rish”ga yurar edi.* (Oybek, Qutlug‘ qon). Bu kontekstda “oyoq uchi” masofa va bepisandlik ramzidir. Kishi “oyoq uchida ko‘rsatganda”, u

o‘zini yuqoriroq, uzoqroqda, boshqani esa arzimas deb biladi. Ingliz tilida bu iboraning ma’nodosh analoglari sifatida *to set smb. beneath one’s feet* (birovni o‘z oyoqlari ostiga qo‘yish) ishlatiladi. Ikkalasi ham salbiy konnotatsiyaga ega vertikal joylashuv metaforasiga asoslanadi: yuqoridan qarash — kibrilik va ustunlik, past holatda bo‘lish – kamsitilish; *trample under foot* (oyoq bilan toptamoq)— “biror narsani yoki kimsani butunlay barbod qilmoq”, ekvivalent tarjima- *oyoq osti qilmoq: International law has been trampled underfoot.* (Times, Sunday Times)— Xalqaro qonunlar oyoq osti qilindi.

Mazkur frazeologik birliklar ham “tik/quyi joylashuv” konseptining salbiy ijtimoiy subfreymiga kiradi. Har ikkala tilda “past joylashuv” – kamsitilish, “ust joylashuv” – hukmronlik yoki mensimaganlik ramzi sifatida namoyon bo‘ladi.

“Quyi joylashuv” semantik maydoniga oid frazeologizmlar va ularning tarjima muvofiqligi jadvalda berilgan (qarang: Izohlar bo‘limi. Jadval № 12). Tahlilga jami 16 ta frazeologik birlik tortildi (8 ta inglizcha, 8 ta o‘zbekcha). Kognitiv jihatdan barcha birliklar “vertikal joylashuv metaforasi”ga asoslanadi: *past holat* – zaiflik, itoat, kamtarlik; *yuqori holat* – ustunlik, nazorat, hurmat. O‘zbek madaniyatida bu model diniy-axloqiy kodlar bilan boyitilgan (masalan, “*Jannat onalar oyog‘i ostidadir*” hadisining muqaddaslik semantikasi).

Tahlilda aniqlashimizcha 3 ta birlik ekvivalent tarzda tarjima qilinadi; 9 tasi analog (*be under smb’s feet* → *oyoq tagida o‘ralashmoq*; *have the world at one’s feet* → *dunyo oyoqlari ostida*); 4 tasi izohli (*oyog‘i ostida* → *at one’s disposal / everything within reach*).

Frazeologizmlar orasida jami 3 ta ijobiy konnotatsiyali – (sadoqat, ehtirom, muhabbat); 13 ta salbiy konnotatsiyali – (kamsitish, tahqir, mensimaslik) birliklar aniqlandi. Demak, “past joylashuv” metaforasi asosan salbiy baho bilan uyg‘unlashadi.

Har ikkala tilda ham “oyoq” komponenti *tayanch, pastlik, yer bilan aloqa, itoat va kamsitilish* semalarini faollashtiradi. Ingliz tilida *foot* konsepti ko‘proq ijtimoiy maqom va ustunlik, o‘zbek tilida esa axloqiy qadriyatlar ham konseptuallashadi.

“Tik/quyi joylashuv” semantik maydoni tahlili shuni ko‘rsatdiki, *foot/oyoq* komponenti ingliz va o‘zbek tillarida fazoviy munosabatlardan ijtimoiy, axloqiy va madaniy ma’nolarga o‘tuvchi universal metafora sifatida funksiyalanadi. Frazelogizmlar tahlilida har ikkala tilda pastlik – itoat, zaiflik, yuqorilik – ustunlik, ehtirom mazmunlarini ifodalovchi umumiy kognitiv mexanizm mavjud. Shu bilan birga, inglizcha birliklar ijtimoiy maqom va natijaga, o‘zbekcha birliklar esa ma’naviy-axloqiy qadriyatlarga urg‘u beradi. Natijada, “quyi joylashuv” maydoni *foot/oyoq* konseptining fazoviy, ma’naviy va emotsional qatlamlarini ochib berib, har ikki til madaniy tizimining o‘ziga hos jihatlarning ustun ekanligini aniqlash imkonini berdi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Слышкин, Г. Г. От текста к символу: лингвокультурные концепты прецедентных текстов в сознании и дискурсе. — М.: Academia, 2000. — 128 с.
2. Попова, З. Д.; Стернин, И. А. Когнитивная лингвистика. — М.: АСТ Восток–Запад, 2007. — С. 83.
3. Юнг, К. Г. Архетип и символ. — М.: Ренессанс, 1991. — С. 49.
4. Дж. Лакофф, М. Джонсон. Метафоры, которыми мы живём. — М.: Прогресс, 2004.
5. Маслова, В. А. Лингвокультурология. — М.: Академия, 2001. — С. 42.